



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHI RAISING F A R M O Y I S H I

2025-yil 2-oktabr

3-11-163-KF/25

Farg‘ona tumani

Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 13-sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

- I. Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 13-sessiyasini 2025-yil 10-oktabr kuni soat 10.00ga chaqirilsin.
- II. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-17-sonli farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman hokimi X.Inomov)
(Mas’ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)
 2. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining ayrim qarorlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i O.Abduraximov)
(Mas’ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)
 3. Farg‘ona tumanida 2025-2026-yillar **novegitatsiya** davri uchun iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun suv olish limitlarini tasdiqlash to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori D.Yuldashev)
(Mas’ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)

4. O‘z XDP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi “2022-2026 yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi PQ-216-sonli Qarorining tumandagi ijrosi haqida;
(Hisobot beruvchi: tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i X.Toshboev)
(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-sonli Qarorining ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman Yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i M.Alijonov)
(Mas‘ul: “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi)
6. Farg‘ona tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar hamda Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 25-aprel kungi VII-7-38-11-163-K/25-son qarori ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i T.Isaqov)
(Mas‘ul: “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi)
7. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 22-fevral kungi “Tumanda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarini e‘tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni ijrosini ta‘minlash haqida”gi VII-5-28-11-163-K/25-sonli qarorining 1-ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida;
(Axborot beruvchi: tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta‘minlash va huquqiy masalalar bo‘yicha doimiy komissiya raisi Q.Makarov)
- III. Tuman Kengashiga saylangan deputatlari sessiya boshlanishidan yarim soat avval kelishi va sessiya tugaguniga qadar sessiyani tark etmasliklari haqida ogohlantirilsin.
- IV. Sessiyaga **tuman hokimi o‘rinbosari, masalalarga daxldor korxona va tashkilot rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda blogerlar** taklif etish tuman hokimligining tashkiliy kadrlar bo‘limi (Xo‘janazarov) zimmasiga yuklatilsin.
- V. Ushbu qaror Farg‘ona tuman hokimligining rasmiy veb sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilish hamda tuman Kengashining navbatdagi 13-sessiyasini OAVlarida jonli efirda yoritish tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (A.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH